

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh.Xodjayeva

29-avgust 2025-yil

**EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111100 - Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

Fan/modul kodi ETQKMMA1205		O‘quv yili 2025/2026	Semestr 2	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni - Mazkur fan talabalarda ekstremizm va terrorizm hodisalarini zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, diniy va huquqiy jarayonlarning murakkab mahsuli sifatida tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Dars jarayonida ekstremistik va terroristik harakatlarning kelib chiqish sabablari, radikallashuv jarayonlari, global va milliy xavfsizlikka tahdidlari, shuningdek, ularga qarshi kurashning huquqiy, siyosiy va ijtimoiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Fan talabalarda tanqidiy yondashuv, huquqiy tafakkur va xavfsizlik siyosatini baholash kompetensiyalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Fanni o‘qitishdan maqsad – Talabalarga ekstremizm va terrorizm fenomenlari, ularning nazariy asoslari, amaliy ko‘rinishlari va oqibatlari bo‘yicha fundamental bilim berish, ularni xalqaro va milliy darajada tahlil qila olish hamda profilaktika va qarshi kurashish mexanizmlarini taklif eta olish qobiliyatini shakllantirish. Fanning asosiy vazifalari: - “ekstremizm”, “radikallashuv” va “terrorizm” tushunchalarining nazariy asoslarini ochib berish; - ekstremistik va terroristik faoliyatning ijtimoiy, diniy, siyosiy va iqtisodiy omillarini tahlil qilish; - radikallashuv jarayonlarida yoshlar, gender va axborot-kommunikatsiya vositalarining rolini ko‘rsatib berish; - xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik asosida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash chora-tadbirlarini o‘rgatish; - davlat va jamiyatning hamkorlik mexanizmlarini (mahalla, ta’lim, OAV, NNT) baholash; - ekstremizm va terrorizmga qarshi samarali profilaktika va xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish. Fanning asosiy manbalari: - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun, “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun, Milliy xavfsizlik strategiyasi; - BMTning “Terrorizmga qarshi kurash global strategiyasi” (2006), Yevropa Kengashi va YXHT hujjatlari;				

- University of Surrey va University of Sussexning *Critical Terrorism Studies*, *Critical Perspectives on Terrorism* kurs materiallari (2024/2025 o'quv yili);

- David Rapoport, Alex Schmid, Richard Jackson, Louise Richardson, Martha Crenshaw kabi yetakchi olimlarning ilmiy ishlari;

- O'zbekistonlik olimlarning "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash", "Kriminologiya", "Huquqiy davlat va xavfsizlik" mavzularidagi ilmiy ishlari.

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:

Mazkur o'quv dasturi University of Surrey (QS World University Rankings 2024'da 244-o'rin) va University of Sussex (QS 2024'da 218-o'rin) universitetlarining kriminologiya va xavfsizlik tadqiqotlariga ixtisoslashgan dasturlari asosida ishlab chiqilgan. Ularning *Critical Terrorism Studies* va *Critical Perspectives on Terrorism* modullari fan uchun asosiy tayanch manba sifatida qabul qilingan. Dastur xalqaro ilmiy-nazariy tajribani O'zbekistonning milliy qonunchilik va xavfsizlik amaliyoti bilan uyg'unlashtiradi.

Dastur quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Nazariya va amaliyot uyg'unligi - ekstremizm va terrorizmga oid nazariy tushunchalar real ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, sud amaliyoti va xalqaro siyosiy tajribalar bilan uyg'un holda tahlil qilinadi. Keys-study, sud hujjatlari sharhi va xalqaro voqealar asosida amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Xalqaro standartlarga moslik - kurs BMT, Yevropa Kengashi, YXHT kabi xalqaro tashkilotlarning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha hujjatlari, shuningdek, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarning ilg'or siyosatlari bilan boyitilgan. Bu yondashuv milliy qonunchilikni xalqaro huquqiy standartlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

-Tanqidiy fikrlash - talabalar ekstremizm va terrorizm masalalarini turli nazariy maktablar nuqtayi nazaridan mustaqil tahlil qiladi, dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradi. Siyosiy qarashlar va xavfsizlik strategiyalarini baholashda tanqidiy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Interfaollik - mashg'ulotlarda interaktiv metodlar — seminarlar, guruh muhokamalari, keys-study, rolli o'yinlar va tadqiqot loyihalari qo'llaniladi. Bu usullar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etadi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Ekstremizm va terrorizm tushunchalari.

Fan ekstremizm va terrorizmning kelib chiqishi, shakllari, sabablari va oqibatlarini o'rganadi. Maqsad – nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalar berish, vazifalar – radikallashuv jarayonlarini tahlil qilish, xalqaro va milliy

mexanizmlarni solishtirish. Ekstremizm va terrorizm jamiyat barqarorligiga tahdid sifatida huquqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan yoritiladi.

2-mavzu. Radikallashuv jarayonlari.

Radikallashuvning bosqichlari, ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillari, yoshlar va marginal guruhlar orasida tarqalish mexanizmlari o'rganiladi. Onlayn va offlayn muhitda radikallashuv jarayonlari misollar bilan tahlil qilinadi.

3-mavzu. Ekstremizm va siyosiy zo'ravonlik.

Siyosiy zo'ravonlik nazariyalari, ekstremistik guruhlarining siyosiy tizimlarga munosabati, davlat va jamiyatga qarshi kurash shakllari tahlil qilinadi. Siyosiy ekstremizmning tarixiy va zamonaviy ko'rinishlari o'rganiladi.

4-mavzu. Terrorizm nazariyalari.

Terrorizm fenomeniga oid asosiy nazariyalar: an'anaviy (realistik) va tanqidiy (kritik) yondashuvlar. "Eski va yangi terrorizm" nazariyasi, global xavfsizlik paradigmasi doirasida muhokama qilinadi.

5-mavzu. Jinoyatchilik va terrorizm o'rtasidagi bog'liqlik.

Jinoyatchilik va terrorizm o'rtasidagi bog'liqlik: moliyaviy manbalar, giyohvand moddalar savdosi, qurol kontrabandasiga oid misollar. Transmilliy jinoyatchilik va terrorizmning kesishuv nuqtalari yoritiladi. Jamiyatning jinoyatga reaksiyasi: jazo, profilaktika va resotsializatsiya.

6-mavzu. Media va internetning roli.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda radikallashuv, propaganda va yollash jarayonlari. Axborot xurujlari, "moral panic" fenomeni va axborot xavfsizligi muammolari ko'rib chiqiladi.

7-mavzu. Diniy ekstremizm

Diniy ekstremizm tushunchasi, uning siyosiy va mafkuraviy ildizlari, diniy radikal oqimlarning tarqalish sabablari. Diniy ekstremizmning jamiyat barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

8-mavzu. Transmilliy terrorizm

Global miqyosdagi terrorizm, uning tarmoqlari va strategiyasi, xalqaro terroristik tashkilotlarning faoliyati. Transmilliy terrorizmning moliyaviy va tashkiliy asoslari muhokama qilinadi.

9-mavzu. Terrorizmga qarshi xalqaro huquqiy mexanizmlar

BMTning global strategiyasi, Yevropa Kengashi konvensiyalari, xalqaro sud amaliyoti. Xalqaro hamkorlik, universal yurisdiksiya va inson huquqlari bilan bog'liq masalalar yoritiladi.

10-mavzu. Davlat siyosati va milliy xavfsizlik

Davlatlarning terrorizmga qarshi kurash strategiyalari (Prevent, Contest va boshqalar). Milliy xavfsizlik va fuqarolik erkinliklari muvozanati. O'zbekiston Respublikasining milliy siyosati alohida ko'rib chiqiladi. Kiberjinoyatlar va global xavfsizlik muammolari.

11-mavzu. Profilaktika va resotsializatsiya

Ekstremizm va terrorizmning oldini olishda jamiyat, ta'lim va mahalla institutlarining roli. Radikallashgan shaxslarni resotsializatsiya qilish amaliyotlari tahlil qilinadi.

12-mavzu. Gender va yoshlar omili

Terrorizm va ekstremizmga yoshlarning va ayollarning ishtiroki, ularning alohida roli va xavflari. Yoshlarni radikallashtirishdan himoya qilish siyosiy va ijtimoiy mexanizmlari muhokama qilinadi.

13-mavzu. Ekstremizm va terrorizmning iqtisodiy oqibatlari

Terrorchilik faoliyati oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlar, ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'siri. Xavfsizlik choralari uchun davlat resurslari sarfi va uning ijtimoiy oqibatlari.

14-mavzu. O'zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan profilaktika siyosati, qonunchilik bazasi va xalqaro hamkorlik tajribasi. Mahalla va diniy-ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

15-mavzu. Terrorizmga qarshi kurashning zamonaviy tendensiyalari

Raqamli davrda terrorizm: kiberterrorizm, sun'iy intellektdan foydalanish xavfi, yangi global tahdidlar. Kelajak xavfsizlik strategiyalari bo'yicha xalqaro prognozlar muhokama qilinadi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini real vaziyatlarda qo'llashini ta'minlaydi. Quyidagi mavzular seminar, key-study, bahs-munozara va tahliliy ishlarga asoslanadi:

1.Ekstremizm va terrorizm tushunchalarini aniqlash. Talabalar O'zbekiston va xalqaro huquqdagi ta'riflarni taqqoslab, asosiy farqlarni muhokama qiladilar.

2.Radikallashtirish jarayonlarini tahlil qilish. Key-study orqali yoshlarning radikallashtirishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillar ko'rib chiqiladi.

3.Ekstremizmning siyosiy ko'rinishlari. Talabalar turli tarixiy davrlardagi siyosiy ekstremizm harakatlarini misollar bilan o'rganadilar.

4.Terrorizm nazariy modellarini solishtirish. Guruh ishlari orqali klassik va tanqidiy yondashuvlar asosida terrorizm sabablari tahlil qilinadi.

5.“Crime-Terror Nexus”ni amaliy misollarda ko'rib chiqish. Talabalar narkobiznes va qurol savdosi bilan terrorizm aloqasini keyslar orqali tahlil qiladilar.

6.Media va internet propagandasi. OAV materiallari va ijtimoiy tarmoqlardan olingan misollar asosida ekstremistik targ'ibot metodlari tahlil qilinadi.

7.Diniy ekstremizm misollari. Turli diniy radikal oqimlarning shior va amaliyotlari bo'yicha key-study tahlil o'tkaziladi.

8.Transmilliy terrorizm tarmoqlarini o'rganish. Talabalar global terroristik guruhlar faoliyatini xarita va sxemalar asosida ko'rib chiqadilar.

9.Xalqaro huquqiy hujjatlarni sharhlash. BMT konvensiyalari va xalqaro shartnomalardan iqtiboslar o'rganilib, ularning amaliy qo'llanishi muhokama qilinadi.

10.Davlat siyosatlari va strategiyalarning tahlili. Turli mamlakatlarning Prevent va Contest kabi strategiyalari keys tahlil asosida solishtiriladi.

11.Mahalliy profilaktika choralari muhokama qilish. O'zbekiston tajribasi, mahalla va diniy-ma'rifiy ishlarga oid real misollar muhokama qilinadi.

12.Resotsializatsiya amaliyotlari. Radikallashtirilgan shaxslarning jamiyatga qaytarilishiga oid xalqaro tajriba keyslar asosida tahlil qilinadi.

13.Gender va yoshlar masalasi. Talabalar ayollar va yoshlarning ekstremistik guruhlariga jalb qilinishini keys misollar asosida muhokama qiladilar.

14.Ekstremizmning iqtisodiy oqibatlari. Talabalar iqtisodiy statistik ma'lumotlar asosida terrorchilik faoliyatining jamiyatga ta'sirini hisoblab ko'radilar.

15.O'zbekiston tajribasi asosida yakuniy keys. O'zbekistonning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha olib borgan siyosati keys tahlil shaklida umumlashtiriladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalar mustaqil ta'lim davomida esse, referat, taqdimot, infografika va loyiha ishlari bajaradilar. Quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ekstremizm va terrorizmning zamonaviy nazariyalari: asosiy konsepsiyalar va bahslar.

2. Radikallashtirish jarayonining bosqichlari va asosiy ijtimoiy determinantlari.

3. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunining amaliy ahamiyati.

4. "Crime-Terror Nexus" fenomeni va uning xalqaro xavfsizlikka ta'siri.

5. Diniy ekstremizmning mafkuraviy asoslari va oldini olish mexanizmlari.

6. Terrorizmning moliyaviy manbalari: global tajriba va xalqaro monitoring tizimlari.

7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ekstremistik propaganda: internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'рни.

8. Yoshlar va gender nuqtayi nazaridan radikallashtirish xavflari.

	9. BMTning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha global strategiyasi va uning milliy siyosatga ta'siri. 10. Xalqaro sud amaliyoti: xalqaro tribunal qarorlari asosida terrorizmga yondashuv. 11. Mahalliy jamoalar va fuqarolik jamiyati ekstremizmga qarshi kurashda: O'zbekiston tajribasi. 12. Mahalla va ta'lim muassasalarining profilaktika faoliyati: kuchli tomonlari va muammolar. 13. Transmilliy terroristik tashkilotlar faoliyati va ularning tarmoqlanish strategiyasi. 14. Terrorizmning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari: davlat barqarorligiga ta'siri. 15. Kiberterrorizm va raqamli xavfsizlik: asosiy xavflar va huquqiy chora-tadbirlar. 16. Terrorizmga qarshi kurash strategiyalarining xalqaro tajribasi (Prevent, Contest va boshqalar). 17. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash siyosatini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston amaliyoti va istiqbollari. Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: • esse va tahliliy insho yozish; • mavzu bo'yicha referat va ma'lumotnoma tayyorlash; • taqqosiy huquqiy sharh va case-tahlil ishlari; • normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganib, annotatsiya tuzish; • keys-study va siyosat brief (policy-brief) tayyorlash; • ilmiy maqola yoki blog-publikatsiya yozish; • multimediali taqdimot, infografika va sxemalar yaratish; • axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash, bibliografiya tuzish; • sud qarorlari yoki xalqaro hujjatlar sharhini ishlab chiqish; • guruh loyihalari, jamoaviy muhokamalar uchun savol-javob bloklarini tuzish; • statistik tahlil va grafik ishlanmalar tayyorlash; • intervyu, so'rovnoma o'tkazish va qisqa tahliliy hisobot yozish; • darsdan tashqari tadbir, davra suhbat, bahs-munozara uchun metodik ishlanma ishlab chiqish; • jamiyatga yo'naltirilgan profilaktika tashabbus loyihasini ishlab chiqish; • xalqaro amaliyotlarni tahlil qilish va taqdimot qilish; • veb-resurslar asosida kontent-tahlil o'tkazish; • mustaqil tadqiqot rejasini tuzish va qisqa konsept-hujjat ishlab chiqish.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

	Fan yakunida talaba quyidagi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘ladi: • Bilimlar: ekstremizm va terrorizmning nazariy asoslari, radikallashuv jarayonlari, milliy va xalqaro huquqiy baza, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining roli, profilaktika choralari va resotsializatsiya amaliyoti. • Ko‘nikmalar: jinoyat va xavfsizlikka oid ma’lumotlarni tahlil qilish, huquqiy hujjatlarni sharhlash, xalqaro standartlarga mos profilaktika siyosati ishlab chiqish, case-study va siyosiy strategiyalarni baholash. • Kompetensiyalar: ◦ tanqidiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish; ◦ huquqiy tahlil va xalqaro-huquqiy qiyoslash; ◦ siyosat tavsiyalari, loyiha hujjatlari tayyorlash; ◦ jamoaviy ish va taqdimot ko‘nikmalari; ◦ ilmiy-tadqiqot olib borish va mustaqil ishlash madaniyati.
	VII. Mavzu yuzasidan savollar: • Ekstremizm va terrorizm tushunchalaridagi farqlar nimada? • Radikallashuv jarayonining asosiy bosqichlari qanday izohlanadi? • Siyosiy zo‘ravonlikning ekstremizmga aylanish mexanizmlari qanday? • “Crime-Terror Nexus” fenomenining mohiyati nima? • OAV va internet radikallashuv jarayonida qanday rol o‘ynaydi? • Diniy ekstremizmning mafkuraviy ildizlari nimada? • Transmilliy terrorizmning global xavfsizlikka ta’siri qanday? • BMTning terrorizmga qarshi kurash global strategiyasi qanday tamoyillarga asoslanadi? • Davlatlarning Prevent va Contest strategiyalari nimasi bilan muhim? • O‘zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning milliy xususiyatlari qanday? • Yoshlar va ayollar radikallashuv xavfida qanday alohida guruh sifatida ko‘riladi? • Kiberterrorizmning o‘ziga xos tahdidlari nimada? • Terrorizmning iqtisodiy oqibatlarini qanday o‘lchash mumkin? • Profilaktika va resotsializatsiya amaliyotlarining xalqaro tajribasi qanday? • Kelajak xavfsizlik strategiyalarida asosiy trendlar nimalardan iborat?

4.	VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • Interfaol metodlar: bahs-munozara, keys-study, guruh ishlari, rolli o‘yinlar, siyosat brief tayyorlash. • Axborot texnologiyalari: multimediali taqdimotlar, infografika, onlayn ma’lumot bazalari bilan ishlash. • Tahliliy metodlar: normativ-huquqiy hujjatlar sharhi, statistik tahlil, kontent-analiz. • Mustaqil ta’lim texnologiyalari: ilmiy maqola yozish, referat va esse, internet manbalar bilan ishlash. • Baholash metodlari: testlar, yozma topshiriqlar, keys tahlili, guruh loyihasi, og‘zaki taqdimot.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha topshiriqlarni bajarish
6.	Asosiy adabiyotlar: Asosiy adabiyotlar: 1. O‘zbekiston Respublikasi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun (1999 y., oxirgi tahrir). – Toshkent: Adolat, 2023. 2. O‘zbekiston Respublikasi “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun (2018 y.). – Toshkent: Adolat, 2023. 3. United Nations. <i>UN Global Counter-Terrorism Strategy</i> (2006, yangilangan nashrlar). – New York: UN. 4. University of Surrey. <i>Critical Terrorism Studies – Module Handbook 2024/2025</i>. – Guildford: University of Surrey. 5. University of Sussex. <i>Critical Perspectives on Terrorism – Course Guide 2024/2025</i>. – Brighton: University of Sussex. Qo‘shimcha adabiyotlar: 1. Schmid, A.P., Spencer-Smith, C. <i>Glossary of Terrorism</i>. – The Hague: ICCT, 2018. – 215 b. 2. Lia, B. <i>Globalisation and the Future of Terrorism</i>. – London: I.B. Tauris, 2005. – 256 b. 3. Gurr, T.R. <i>Why Men Rebel</i>. – Princeton: Princeton University Press, 2015 (yangilangan nashr). – 376 b. 4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari (so‘nggi tahrirlar). 5. BMTning terrorizmga qarshi kurashga oid konvensiyalari, xalqaro shartnomalar.

	6. START (National Consortium for the Study of Terrorism and Responses to Terrorism) ma'lumotlar bazasi – www.start.umd.edu. 7. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya etgan "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash" o'quv-uslubiy qo'llanmalari. 8. Europol, Interpol va boshqa xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlari. 9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ekstremizm va terrorizmning oldini olish bo'yicha dasturlari (oxirgi nashrlar). 10. Internet manbalari: www.unodc.org, www.osce.org, www.mfa.uz (rasmiy hujjatlar uchun). 11. https://welcomekaznukz.translate.google.ru/education_programs_wapp#elective
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: B.A.Baxriddinov – Qo'qon DU, Milliy g'oya va huquq kafedrası o'qituvchisi N.Siddiqov – Qo'qon DU, Milliy g'oya va huquq kafedrası dotsenti, yu.f.n.
9.	Taqrizchilar: T.Madumarov – ADU, Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti dekani, yu.f.dok., professor